



QISQARTMALARNI TARJIMA QILISH

Xaitova Nilufar Rashid qizi

Termiz Davlat Universiteti

Xaitovanilufar6@gmail.com

Toshtemirova Aziza To'liqin qizi

Termiz Davlat Universiteti

toshtemirovaaziza094@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola qisqartma so'zlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda uchraydigan muammolar va ularning yechimi haqida. Shuningdek, bunday marnlarni qanday qilib tarjima qilish haqidadir. Ushbu maqolada qisqartmalarga misollar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: abbreviatura, acronym, combination, clipping, shortening, initialism, xalqaro tashkilotlar, kalkalar

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatda qisqartma so'zlar juda ham ko'p ishlatiladi. Biz ushbu maqolada qisqartmalarni qanday tarjima qilishni ko'rib chiqamiz. Qisqartmalardan aynan foydalanishimizning sababi ma'lomotlarni ixcham yetkazib berish uchun foydalanamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI



Ushbu maqolada qisqartmalarning bugungi kundagi ahamiyati, o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish va ularga misollar keltiriladi. Qisqartmalarni tarjima qilishda transformatsiyalardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

Leksik transformatsiya: ushbu transformatsiya so'zni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.

MUHOKAMA

Qisqartma (lotincha "brevis", italyancha "abbreviatura" – qisqa) so'z yoki so'z birikma qisqartirishi orqali hosil bo'lganva bosh harflarning alifbo nomi va unga kiritilgan so'zlarning boshlang'ich tovushlari bilan o'qiladigan so'z hisoblanadi. Bugungi kunda ular sms xabarlarida, biznes yozishmalarda, xalqaro atamalarda keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi juda tez-tez ishlatiladi, shuning uchun zamon bilan hamnafas yashashni istaydigan odamlar qisqartma so'zlarni o'zlashtirishlari lozim. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sms yozishmalarini qisqartib yozish juda ko'p uchraydi: pls – please, gonna – going to, wanna – want to, gimme - give me, lemme – let me, kinda – kind to.

Misol uchun: abbreviation – qisqartma, qisqartirilgan shakli, qisqartirish

Acronym – bosh harflardan tuzilgan qisqartma so'z

NASA – National Aeronautics and Space Administration.

BBC – British Broadcasting Corporation

UNESCO – United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization

OAK – Oliy atistatsiya komissiyasi

BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti

CNN – Cable News Network

BAA – Birlashgan Arab Amirligi



UNICEF – United Nations International Children’s Emergency Fund.

NATO – North Atlantic Treaty Organization

AI – Artificial Intelligence

Qisqartma soʻzlar - barqaror soʻz birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki maʼlum qismlarini olib qoʻshish bilan hosil qilingan soʻzlar. Masalan: IIV — Ichki ishlar vazirligi, XTB — Xalq taʼlimi boshqarmasi, fil-fak — filologiya fakulteti. Qisqartma soʻzlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo boʻladi va faol qoʻllanishi natijasida keyinchalik ogʻzaki nutqqa ham oʻtadi.

Qisqartma soʻzlar asosan, ot turkumiga mansub boʻlib, quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi:

1) soʻz birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qoʻshish bilan (HDP— Xalq demokratik partiyasi, DTM—Davlat test markazi); Qisqartma soʻzlarning bu turi ilmiy adabiyotlarda abbreviatura deb ham ataladi;

2) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarning 1-harflarini olib qoʻshish bilan "OʻzAS" ("Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼ-ati");

3) soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning bosh qismlarini olib qoʻshish bilan (biofak — biologiya fakulteti, jurfak — jurnalistika fakulteti);

4) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarni qisqartirmay qoʻshish bilan (Oʻzdonmahsulot, Oʻzgazloyiha);

5) aralash yoʻl bilan (Oʻzbektelekom, Oʻzteleradiokompaniya, Oʻzavtoyoʻl) va boshqalar kiritiladi.

Qisqartma soʻzlar mamlakatlar va davlatlar

XXR – Xitoy Xalq Respublikasi



RF – Rossiya Federatsiyasi

AQSH – Amerika Qo'shma Shtatlari

DSiyosiy partiyalar va harbiy uyushmalar

O'z XDP – O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi

O'z DJTU – O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, korxonalar

XTV – Xalq Ta'lim Vazirligi

DTM – Davlat Test Markazi

Ushbu so'zlarni biz qisqartmalarga misol qilib keltira ololamiz va bu so'zlarni tarjima qilishda leksik transformatsiyalardan foydalanildi. Misol uchun: NATO – North Atlantic Treaty Organization ya'ni buni inglizdan o'zbek tiliga tarjima qilganimizda Shimoliy Atlantika Davlatlararo Tashkiloti

NASA – National Aeronautics and Space Administration buni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda Milliy aeronaftika va koinot boshqarmasi

UK – United Kingdom – Birlashgan Qirollik

USA – United States of America - AQSH – Amerika Qo'shma Shtatlari

XULOSA

Ushbu maqolani yozishdan maqsad bugungi kunda ko'p uchraydigan qisqartma so'zlarni to'g'ri tarjima qilish hisoblanadi. Qisqartma so'zlarni ayniqsa, yoshlar sms yozishmalarda, biznes aloqalarda ko'p ishlatiladi. Qisqartirish - bu qismlarni birgalikda yozish orqali o'lchamlarning kichrayishi; so'z yoki so'zlarning qisqarishi ma'lum harflarni



qoldirib amalga oshiriladi ya'ni birinchi va oxirgi harflarni yoki elementlarni birlashtirish hisoblanadi.

REFERENCES:

- 1 Urinova Tursunoy Urin qizi. (2021) Translation problems of set expressions related businessmen speech Международной научно- практической конференции «Молодой учёный: вызовы и перспективы» стр. 120-124
- 2 Javliyev, M. O. O. G. L. (2021). “ONA VATAN” KONSEPTINI O’RGANISHDA MAQOL-MATALLAR VA HIKMATLI SO’ZLARNING O’RNI, ULARNING MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 716-722.
- 3 Saydullayeva Malika Sayidmurod qizi. (2023) THE STYLISTIC DEVICES IN TRANSLATING ROBERT M. DRAKE’S “BEAUTIFUL AND DAMNED” WORK FROM ENGLISH TO UZBEK pp. 83-85
- 4 Javliyev, M. O. O. G. L. (2022). “ONA VATAN” KONSEPTINING AFORIZMLAR VA MATNLAR YORDAMIDA TURLI TILLARDA IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 3(11), 514-519.